

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

***60311000 – Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari***

**Buxoro - 2022**

## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Buxoro davlat universiteti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus vazirligi Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashning 2022 yil "30" 08 dagi \_\_\_ - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus vazirligi Buxoro davlat universiteti.

Mazkur Malaka talablari 300000-Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar. "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliligi Buxoro davlat universitetiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
1.	<i>60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....</i>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1	<i>60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi Malaka talabning qo'llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tasnifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>60311000 – Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'yektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari.....</i>	5
2	<i>60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

## **1. 60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60311000 - Sotsiologiya** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'limshakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 60311000 - Sotsiologiya bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv hodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavirat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiyasi kommissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abiturentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**60311000 - Sotsiologiya** – jamiyat ijtimoiy xayoti, uning sotsial strukturasi, shuningdek, uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning faoliyati, turli sotsial voqealar, jarayonlar hamda kishilarning sotsial xulq-atvori qonuniyatlarini butun bir ijtimoiy murakkab tizim sifatida qamrab olib, o'zining konkret empirik metodlari asosida ularni nazariy va amaliy jixatlarda tadqiq etadi. Mazkur yo'nalish jamoatchilik fikrini o'rganish markazlari, ommaviy axborot vositalari, davlat xokimiyat organlari, huquqni muxofaza qilish organlari, siyosiy partiyalar, marketing va konsalting xizmat ko'rsatish, ijtimoiy ta'minot, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ta'limining davlat va nodavlat muassasalarida yo'nalishga doir masalalarni yechish majmuini qamrab oladi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqalari, kadrlar buyurtmalari talablaridan kelib chiqqan xolda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

#### **1.2.2. 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- jamiyat va uni tashkil etuvchi ijtimoiy tizimlar, shaxs, sotsial jamoa, sinf va guruhlar, ijtimoiy institut va tashkilotlar; sotsial stratifikatsiya (tabaqalanish) va sotsial mobillik jarayonlari; sotsial xarakter, munosabat va aloqalar; ommaviy va sotsial kommunikatsiyalar; ijtimoiy boshqaruv, ijtimoiy xizmat va konsalting, doimiy va ekstremal sotsial hodisalar va jarayonlar; jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar va kishilar sotsial xulq-atvori; jamoatchilik fikrini organish tizimi; ijtimoiy qonun va qonuniyatlarni natijadorligini oshirish jarayonlari.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faolliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**1.2.3. 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *Tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *Ma'naviy-ma'rifiy faoliyati;*
- *Loyihaviy faoliyati;*
- *Pedagogik faoliyat (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida);*
- *Turli xizmatlar ko'rsatish faoliyati.*

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari talim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikdagi oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faolliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

**1.2.4. 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari:**

60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka dasturining 6-malaka darajasi xamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

-Ilmiy sohada namunaviy metodikalar asosida ilmiy-tadqiqotlarni olib borishi, ularning natijalarini qayta ishlab, ular asosida ilmiy asoslangan xulosalarini ilgari sura olish;

-fundamental va amaliy sotsiologik tadqiqotlarni tayyorlash va o'tkazishda tadqiqot dasturini tuzish, birlamchi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish bosqichlarida ishtirok etish;

-zamonaviy informatsion texnologiyalar, hisoblash texnikasi vositalari, kommunikatsiya va aloqalarni qo'llash asosida keng turkumdagi manbalarni jalb qilish orqali ijtimoiy, demografik, iqtisodiy va boshqa empirik ma'lumotlarni qayta ishlash;

-sharx va annotatsiyalar tayyorlashda katnashish;

-sotsiologik tadqiqotlar xamda sotsiologik nazariyalarning gushuntiruvchi imkoniyatlaridan foydalangan xolda boshqa empirik ma'lumotlarni interpretatsiya qilish;

-tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha xisobotlar, analitik ma'lumotnoma, kasbga oid nashrlar, informatsion ma'lumotlar tayyorlashda ishtirok etish;

-tadqiqot natijalarini taqdim etish, o'tkazilgan tadqiqot mavzusi bo'yicha xabarlar va ma'ruzalar bilan turli ilmiy doiralarda qatnashish va ilmiy maqolalar chop etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**Ishlab chiqarish-amaliy faoliyatda:**

-ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning natija va oqibatlarini baholash, sotsial ekspertiza;

-hokimiyat va boshqaruv organlarida, ta'lim, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalarida hamda sotsial kommunikatsiyalar va kasbiy faoliyatning boshqa sohalorida ma'rifiy, informatsion va konsultativ ish;

-huquqni muhofaza qilish organlarida ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha analitik ish;

-ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalorida tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha konsultativ va servis ishi;

-korxonalar, tashkilot, muassasa, tarmok soha va hududlarni ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish maksadida tadqiqotlarning me'yoriy-metodik va ma'lumotlar bazasini ta'minlash;

-ijtimoiy guruxlarning ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash, ularning bir- birlari va ijtimoiy jamoalar (mehnat jamoasi, xududiy jamoa)ning rivojining ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlari bilan o'zaro kelishuv mexanizmlarini taklif etish;

-korxonalar, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan dolzarb muammolarni o'rganish;

-ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

-korxonalar va tashkilotlarda mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, mehnat faoliyati sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

-korxonalar va tashkilotlarda kadrlar, ishlovchilarning kasbiy malakaviy va demografik tarkibining o'zgarishini taxlil qilish;

-ijtimoiy masalalarni hal qilish bo'yicha korxonalar, muassasa va tashkilot boshqaruv organlari xodimlariga maslahat berish, sotsiologik yondashuvlarni qo'llash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

-ijtimoiy sohalarni monitoringini ta'minlaydigan ma'lumotlar bazasini shakllantirish va tahlil qilish, unga boshqaruv ta'sir chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda boshqaruv ta'sir samarasini baholash, shu bilan birga ma'lumotlar manbalarini ularning zaruriyligi, yetarliligi va ishonchliligini baholash maqsadida audit qilish;

-hokimiyat va boshqaruv, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarida, tashkilot va muassasalarning ma'muriy-boshqaruv bo'linmalarida boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etish;

-ilmiy konsultatsiya va ekspertiza, ma'lumot almashinuvlari masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot muassasalari va informatsion-analitik xizmatlar bilan aloqalarni tashkil etish hamda ta'minlashda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Loyihaviy faoliyatda:**

-joriy va davriy ko'rsatkichlar nisbati tahlili va zarur resurslarni hisobga olgan holda uni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatning monitoringi uchun ma'lumotlar bazasini yaratish;

-tadqiqot, analitik va konsalting loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun metodik ta'minotlar, me'yoriy xujjatlar, informatsion ma'lumotlar ishlab chiqishda qatnashish;

-ijtimoiy ko'rsatkichlar, jarayon va munosabatlarni diagnostika qilish, baholash, takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

-jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, tadqiqot natijalarini tarkatishda ishtirok etish;

-turli maqsadli auditoriyalar uchun marketing tadqiqotlarni ilmiy-metodik, texnik va informatsion jihatdan ta'minlash, marketing xizmatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

-tashkilot, korxonalar, muassasa va mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarining taklif va talablari asosida sohaga tegishli ma'rifiy tadbirlarini tashkil etish;

-mahalliy matbuot, ilmiy-ommabop teleradio eshittirish, ko'rsatuvlarda sohaga tegishli materiallar bilan ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Turli xizmatlar ko'rsatkichish faoliyatida:**

-pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

-sotsiologiya sohasi mutaxassisliklari bo'yicha mavjud holatning tahliliy sharhni ishlab chiqish;

-muassasa, tashkilotlarda va korxonalarda sotsiologik xizmatni tashkil etish va uni amalga oshirish;

-sotsiologik xizmat ko'rsatish bo'yicha loyihaviy va dasturiy xujjatlarni ishlab chiqish;

-sotsiologiya sohasiga tegishli magistr tayyorlash ixtisosligiga mos bo'lgan ilmiy loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruxlarida ishtirokchi sifatida katnashish; ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatkichish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

## **2. 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy kompetentlariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bulish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallashi;

- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar va xodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bulish, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo'lish,

ulardan ijtimoiy hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy asoslarda foydalana olish;

- insonlar orasidagi jamiyatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatda hisobga olish;

- axborotni to'plash, tahlil qilish, saqlash, ularga ishlov berish va unumli foydalanish metodlarini egallash, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil fikrlash va kerakli qarorlar qabul qila olish;

- bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olish, o'zini takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- tashkilot va muassasalarda sotsiologik tadqiqotlar metodlarini aniqlash va tadqiqot olib borish;

- sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi;

- tadqiqotdan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash va optimallashtirish va yangi zamonaviy axborot tizimi metodlarini qo'llash;

- kompyuter texnologiyalari va dasturlash;

- texnik ekspluatatsiya va tamoyillarini tuzish xamda loyihalash;

- bilimlar injeneriyasi;

- tizimli yondashuv mexanizmlarini tadbiq etish;

- dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi va injeneriyasi;

- inson va jamiyat o'zaro munosabatlarini ratsionallashtirish uchun tadbiq etish usullari.

### 3. 60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlariga qo'yiladigan talablar

#### 3.1. 60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlariga qo'yiladigan umumiy talablar

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari ta'limiy o'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi hamda kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirishi, amaliyolarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

O'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi. Bunda o'quv jarayoni grafigi, haftalar kesimida o'qish vaqti, attestatsiyalar, amaliyotlar ta'tillar, semestrlar bo'yicha o'tiladigan fanlar, mashg'ulotlar turlari, ajratilgan soatlar, kreditlar, fanlar kodi, davlat attestatsiyasi va boshqalar ko'rsatiladi.

O'quv rejalariga kiritiladigan majburiy va tanlov fanlar turdosh oliy ta'lim muassasalar bilan hamkorlikda tayanch oliy ta'lim muassasalari bilan kelishilgan holda tayyorlanadi.

#### 3.2. 60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi hajmi

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarni o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 26 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Foizi	Semestr
Nazariy va amaliy ta'lim	105	51,5%	1-7
Malakaviy amaliyot	19	9,3%	4, 6, 8
Attestatsiyalar	21	10,3%	1-8
Yakuniy davlat attestatsiyalari	3	1,5%	8
Ta'tillar	51	25,0%	1-8
Kredit ta'lim tizimiga kirish	5	2,5%	1-3-5-7
Jami	204	100%	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKC 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri menejment, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Buxoro davlat universiteti

Rektor  O.X. Xamidov

202\_yil " " \_\_\_\_\_

M.O'



KELISHILGAN:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Rektor  M.M. Daminov

202\_yil " " \_\_\_\_\_

M.O'



Buxoro innovatsiyalar universiteti

Direktor  D.I. Roziyeva

202\_yil " " \_\_\_\_\_

M.O'.



Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi


Markaz direktori  A.K. Safarov

202\_yil " " \_\_\_\_\_

M.O'.



Buxoro viloyati IIB MMI va KBTX

Boshliq o'rinbosari  
mayor  O'.G. Hamidov

M.O'.



Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Akademik litseyi

Litsey direktori  E.Z. Halimov

202\_yil " " \_\_\_\_\_

M.O'










Buxoro shahar 23-son maxsus maktab internat

Maktab direktori  D.S. Kaxarova

M.O'.



**60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talab va o'quv rejani ishlab chiquvchi Ishchi guruh tarkibi**

T/r	Ishchi guruh raisi va a'zolarining F.I.Sh.	Lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, ish joyi	Imzo
1.	O.X. Xamidov	BuxDU rektori	
A'zolari			
2.	R.G'. Jumayev	BuxDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor	
3.	J.R. Jo'rayev	BuxDU "Tarix va yuridik" fakulteti dekani.	
4.	A.M. Nazarov	BuxDU "Tarix va yuridik" fakulteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi mudiri.	
5.	A.A. Huseynova	O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) Buxoro viloyat boshqarmasi boshlig'i	
6.	L.Y. Olimov	BuxDU Psixologiya kafedrasi dotsenti	
7.	Sh.Sh. Ostanov	BuxDU Psixologiya kafedrasi dotsenti	

**Rektor**

**O.X. Xamidov**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

**R.G'. Jumayev**

**"Tarix va yuridik" fakulteti dekani**

**J.R. Jo'rayev**

**Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi mudiri**

**A.M. Nazarov**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sonli «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida» 187-sonli, 2017 yil 30 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ 3304-son Qarorlarida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida Buxoro davlat universitetidan ishlab chiqilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassislarining Malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari va o'quv adabiyotlari loyihalarini turdosh Oliy ta'lim muassasalari bilan

## KELISHUV BAYYONOMASI

**Buxoro shahri**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 y.

**Rais:** O.X.Xamidov – Buxoro davlat universiteti rektori.

**Kotib:** R.G'.Jumayev – Buxoro davlat universiteti O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Qatnashdilar: R.G'.Jumayev – BuxDU O'quv ishlar bo'yicha prorektor, J.R.Jo'rayev – Tarix va yuridik fakulteti dekani, SH.R. Barotov – Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti rektori, A.M.Nazarov Buxoro davlat universiteti – "Psixologiya va sotsiologiya" kafedrasini mudiri, U.A.Qosimov – Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Yangi pedagogic texnologiyalar va psixologiya kafedrasini mudiri, E.Z.Halimov – Buxoro muhandislik va texnologiya instituti akademik litseyi direktori, A.A.Xuseynova – O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) Buxoro viloyat boshqarmasi boshlig'i, M.N.Usmanova - Buxoro davlat universiteti – "Psixologiya" kafedrasini dotsenti.

### KUN TARTIBI

1. Malaka talablarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirikini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 iyundagi "2021/2022 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim muassasalarida o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-5157-sonli buyruqlarida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida Buxoro davlat universiteti hamda turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda tashkil qilingan ishchi-guruhlar tomonidan ishlab chiqarilgan ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari va o'quv rejalarini muhokama qilish hamda ularni tasdiqlash uchun tavsiya etish.

### ESHITILDI:

Prof. O.X.Xamidov - Buxoro davlat universiteti rektori.

O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlash maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi katta o'zgarishlarni hisobga olib, oliy ta'lim tizimida ham oliy ta'lim tizimida ham ulkan islohotlar yo'lga qo'yildiki, bunda oliy talim yo'nalishlarini (mutaxassisliklari)ning yangilangan Klassifikatorida kadrlarni tayyorlash jahon tajribalari, mamlakat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari)ni tegishli sohalarga muvofiqlik nuqtai nazaridan unifikatsiyalanmoqda. Shundan kelib chiqib Buxoro davlat universiteti va boshqa turdosh oliy ta'lim muassasalarining yetakchi professor

o'qituvchilari ishtirokida maxsus ishchi guruh a'zolari tomonidan bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejalari ishlab chiqildi. Ularga turdosh oliy ta'lim muassasalaridan, vazirlik va idoralar kadrlar iste'molchilar sifatida taqrizlar olindi.

Sizlardan ushbu tayyorlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejalari muhokama qilib, o'z fikr - mulohazalaringizni bildirishlaringizni so'rayman.

### SO'ZGA CHIQQILAR:

R.G'.Jumayev - O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

Mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat taraqqiyoti, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash sohasidan jahon tendensiya kelib chiqib ketish, ijtimoiy sohalarning modernizatsiyalashuv sharoitida kadrlar iste'molchilarining oliy ta'lim mazmuniga tezkor joriy etilishiga tegishli sharoitlar yaratish, oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarini xalqaro amaliyotdagi akademik standartlar bilan uyg'unlashtirish hamda ularning uzviylikini ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. Buxoro davlat universiteti va turdosh oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari va o'quv rejalari me'yor talablariga javob beradi, shuningdek, malaka talablari va o'quv rejalari ishlab chiqilishida kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.

Ular oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislari klassifikatoriga mos ravishda ijtimoiy-psixologik islohotlardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy innovatsion texnologiyalar bo'yicha chuqur bilim hamda amaliy ko'nikmalarni tayyorlanadigan kadrlarga yetkazishga mo'ljallangan. Shuning uchun ishlab chiqilgan barcha malaka talablari va o'quv rejalarni ma'qullayman va malaka uchun tavsiya etaman.

Shuningdek, Buxoro davlat universiteti va turdosh oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqarilgan barcha ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari va o'quv rejalari tasdiqlash uchun tavsiya etdilar.

J.R.Jo'rayev - Buxoro davlat universiteti va turdosh oliy ta'lim muassasalari **professor - o'qituvchilari** tomonidan ishlab chiqarilgan bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari va o'quv rejalari oliy ta'lim talablari asosida tuzilgan.

Bak t/r	Mag t/r	Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoridagi bilim sohasi, ta'lim sohasi, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining nomlari	kod	
			Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari	Magistratura ta'lim yo'nalishlari
		Bilim sohasi: 300000-Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot		
		Ta'lim sohasi: 310000-Ijtimoiy va xulq atvoriga mansub fanlar		
1		Sotsiologiya	60311000	

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 20 apreldagi PQ 2909-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sonli "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 iyundagi "2018/2019 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida o'qishga qabul qilish to'g'risida"gi PQ-3769-son, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoning 2018 yil 4

apreldagi 5002 - sonli topshirig'i, 2020 yil 12 iyundagi "2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4749-sonli, 2021 yil 22 iyuldagi "2021/2022 o'quv yilida O'zbekiston respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-5157-sonli buyruqlarida belgilanga vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida, Buxoro davlat universiteti, professor-o'qituvchilari tomonidan kadrlar iste'molchilari asosida ishlab chiqilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari malakalari talablari va o'quv rejalari Respublikada ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarga mos ravishda, kadrlar iste'molchilari va turdosh oliy ta'lim muassasalarining takliflari inobatga olingan holda tayyorlanganligi inobatga olinsin.

2. Ishlab chiqarish bakalavr ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassislarining malaka talablari va o'quv rejalari loyihalarini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun manfaatdor vazirlik (idoralar) hamda asosiy ish beruvchi subyektlar va ilmiy tadqiqot institutlarida ekspertizadan o'tkazilgani e'tirof etilsin.

3. Ekspertiza natijasi mutaxassislar tomonidan aniqlangan kamchilik va takliflar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari oxirgi loyihalarini ishlab chiqishda inobatga olinsin.


4. Ishlab chiqarish 60311000 - Sotsiologiya bakalavr ta'lim yo'nalishi malaka talabi va o'quv rejasini o'rganilgan tartibda tasdiqlatishga tavsiya etilishi uchun Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashiga taqdim etilsin.

**Majlis raisi:**

**O.X. Xamidov**

**Kotib:**

**R.G'. Jumayev**



**Buxoro davlat universiteti 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Buxoro sh. " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2022 yil

Biz, quyida izmo chekuvchilar – Buxoro viloyati Buxoro shahar 23-son maxsus maktab internat direktori D.S.Qaxxorova, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi direktori E.Z. Halimov, Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori M.Rustambayev, Buxoro innovatsiyalar universiteti D.I.Ro'ziyeva, Buxoro viloyati IIB MMI va KBTX boshlig'ining birinchi o'rinbosari mayor O'.G.Hamidov bilan birgalikda BuxDU da ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriant ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari va o'quv rejalarini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida dalolatnoma tuzdik:

**1. 60311000-Sotsiologiya**

Malaka talablari hamda o'quv rejalarini ishlab chiqishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi "2021/2022 O'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-5157-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqishidagi asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Buxoro davlat pedagogika instituti**

**M.I. Daminov**

**Buxoro innovatsiyalar universiteti**

**D.I. Ro'ziyeva**

**Buxoro viloyati IIB MMI va KBTX**

**O'.G. Hamidov**

**Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi**

**A.K. Safarov**

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi**

**E.Z. Halimov**

**Buxoro shahar 23-son maxsus maktab internat**

**D.S. Kaxarova**

**Buxoro davlat universitetida ishlab chiqilgan 60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari o'quv rejalariga**

**TAQRIZ**

Buxoro davlat universitetida **60311000 - Sotsiologiya ta'lim yo'nalishlarining malaka talablarini ishlab chiqilishida** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018-yil 3-apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejaları ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi dolzarb muammolarini hal etishga qaratilgan empirik tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha statistik ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha tayyorlanadigan kadrlarni bozor konstukturasiga mos ravishda raqobatbardosh ko'rinishga ega bo'lgan ijtimoiy soha mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan me'yoriy xujjat hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizning barcha tizimlarida bazaviy oliy ma'lumotli malakali ijtimoiy so'rovlar o'tkazuvchi va ularni tahlilini amalga oshiruvchi mutaxassislarni yetishmasligi, mamlakatimizning shu oxirgi yillarda kechirayotgan tashvishi epidemiologik va tabiiy texnogen muammolar ustida olib borgan ishlari yuzasidan o'z aksini ko'rsatganligi bunga yaqqol namuna bo'la oladi. O'zbekistonda ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha shakllantirilgan yo'l xaritalarida keltirib o'tilgan chora tadbirlarda aynan ijtimoiy so'rovlar ko'lamini oshirishni talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur mutaxassislar tayyorlashdagi ta'lim standartlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. 60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejaları tarkibiga sotsiolog mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni qamrab oluvchi fanlar kiritilgan.

60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejalarining mazmunini va tarkibini tahlil etish, uni ishlab chiqishda jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari sotsiologiya sohasida kadrlarni tayyorlashni boy tajribasi o'rganilganligi va mamlakatimizda mutaxassis iste'molchi, buyurtmachi tashkilotlarni shu sohada kadrlarga bo'lgan o'sib va o'zgarib borayotgan talablari e'tiborga olingan.

60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejaları bugungi kunda oliy ta'lim sohasini isloh etish ustuvor yo'nalishlari va talablariga javob beradi hamda tasdiqlashga tavsiya etish mumkin.

**Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti**  
**o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari**  
**Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent**



**E.M. Muxtorov**

**Buxoro davlat universitetida ishlab chiqilgan 60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuning qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari o'quv rejalariga**

## **TAQRIZ**

Buxoro davlat universitetida **60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyundagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi "2021/2022 O'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-5157-son Qarorlari bilan tamoyillarga amal qilingan.

**60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni o'quv yuklamasi hajmi, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorgarlik sifatiga qo'yilgan talablar to'g'ri ko'rsatilgan. Ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan barcha blok fanlari to'g'ri tanlangan. Ta'lim oluvchilarda xorij tajribasi asosida chuqur bilim, mustaqil fikrash, yuksak malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda ilg'or xorijiy OTM larining zamonaviy uslub va texnologiyalariga, o'quv mashg'ulotlarining shakllariga va mustaqil bilim olishga keng o'rin berilishi diqqatga sazovordir. Malaka talabalarini va o'quv reja xalqaro standartlarga mos holda tuzilgan. Fanlar bo'yicha soatlarni taqsimlashda belgilangan vaqt me'yorlariga amal qilingan. Fanlarni bloklar va semestrlarga joylashtirishda uslubiy ketma-ketlikka qat'iy rioya etilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, **60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta'lim yo'nalishining ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejalari oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va safatli tuzilgan bo'lib, o'quv jarayonining me'yoriy hujjatlarini tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Buxoro Muxandislik texnologiya instituti**  
**Akademik litseyi direktori,**  
**Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent:**



**E.Z. Halimov**

**Buxoro davlat universitetida ishlab chiqilgan 60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmunining qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari o'quv rejalariga**

**TAQRIZ**

“Ta’lim to’g’risi”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish dasturiga muvofiq ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg’or jahon darajasiga muvofiqqligini ta’minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog’liq.

**60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta’lim yo’nalishi malaka talablari va o’quv rejalarini O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida” qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-sonli; O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo’lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4358-sonli Qarorlari hamda O’zR OO’MTB ning 2018 yil 6iyundagi “Oliy ta’lim yo’nalishlarining malaka talablari va o’quv rejalarini ishlab chiqish to’g’risida”gi № 87-02-1322-sonli buyrug’i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o’quv rejalarini xorij tajribasi asosida uyg’unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb malakasi shakllantirishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o’zlashtirish jarayonida tajriba, ko’nikmalar hamda tasavvurga ega bo’lishi, qo’yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to’g’ri ko’rsatilgan. Malaka talablari va o’quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o’rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg’ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o’rin berilgan.

Malaka talablaridagi bloklar bo’yicha fanlar tarkibi, ularning o’zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo’yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo’llay olish ko’nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko’rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo’llash ko’nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o’quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta’lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, **60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta’lim yo’nalishining ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o’quv rejalarini oliy ta’lim o’quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo’naltirilgan bo’lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o’z ichiga olgan va safatli tuzilgan bo’lib, o’quv jarayonining me’yoriy hujjatlarini tayyorlash uchun asos bo’lib xizmat qiladi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Falsafa fanlari doktori, professor



A.A. Huseynova

## **60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nashi bo'yicha malaka talabning ishlab chiqilishiga**

### **TUSHUNTIRISH XATI**

**60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta'lim yo'nashi bo'yicha malaka tablarni ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asoslanildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni;

"2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 iyundagi "2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4749-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi ta'moyillarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 470-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasining 2020 yil 9 yanvardagi RA1/1-20-sonli topshirig'i;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 30 iyundagi "2020/2021 o'quv yilidan kredit-modul tizimiga o'tish to'g'risida"gi 357-sonli buyrug'i.

Malaka talablarni ishlab chiqishda bakalavriat yo'nalishlari bitiruvchilariga kadrlar iste'molchilari tomonidan ko'rsatilgan malaka ko'nikmalari talablari hisobga olingan.

**60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta'lim yo'nashi o'quv rejasidagi fanlar va o'quv yuklamalar hajmi kredit-modul tizimi talablariga to'liq mos holda ishlab chiqildi.

Ushbu malaka talablari raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishga, shuningdek ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmonlarini mukammal amalga oshirilishiga qaratilgan.

Malaka talablarida milliy mustaqillik, demokratiya, boy milliy va ma'naviy an'analar, xalqning teran intellektual imkoniyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillari hisobga olindi.

Malaka talablari asosida ta'lim oluvchilarida chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasbiy malakaviy ko'nikma shakllanishi ta'minlanadi.

Ushbu malaka talablari xalqaro tajriba, texnika, texnologiyalar, fanning rivojlanish darajasi va yutuqlari iqtisodiy ustuvorlik sharoitida kadrlarga nisbatan ishlab chiqarish va amaliyotda qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda ilmiy asoslanadi.

O'quv yuklamasining oddiydan murakkabga qarab tuzilishiga erishilganligi natijasida ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga ko'ra ta'limni tabaqalashtirish imkoniyatlari hisobga olindi.

Ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarni tayyorlash, kredit-modul tizimida ta'lim faoliyati sifatini baholash me'zonlari va tartiblarining belgilangan me'yoriy-qoidalarga mosligiga erishildi.

Malaka talablarining qulayligi – uning bajarilishini nazorat qilish, me'yor va talablari buzilishining oldini olish imkoniyatlari inobatga olingan bo'lib, bakalavriat yo'nalishlar malaka talablarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

**60311000 - Sotsiologiya** bakalavriat ta'lim yo'nashi malaka talab va o'quv rejasida tajribada tekshiruvdan o'tgan ta'lim hamda ishlab chiqarish amaliy faoliyatlarining ilg'or me'yorlari kiritildi.

Malaka talablarni ishlab chiqishda mamlakat ijtimoy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, nufuzli xorijiy universitetlar tajribalarini o'rganish asosida, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendendiyalaridan kelib chiqib, iqtisodiyot sohasining modernizatsiyalashuvi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida kadrlar iste'molchilarning talablarini oliy ta'lim mazmuniga tezkor joriy etishga tegishli sharoitlar yaratish, oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarini xalqaro amaliyotdagi akademik standartlar bilan uyg'unlashtirildi hamda ularni uzviyligi ta'minlandi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



R.G'. Jumayev

60311000 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.p		Fanlar bloklari va bloklarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi soatlarda
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4980</b>
1.01	O'RT1104	O'zbek (Rus) tili	120
1.02	XT1108	Xorijiy til	240
1.03	MAN1102	Ma'naviyatshunoslik	60
1.04	IS1116	Ijtimoiy statistika	480
1.05	STTE1108	Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish metodlari 1	240
1.06	ST1106	Sotsiologiya tarixi	180
1.07	O'YaT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120
1.08	SAKT1204	Sotsiologiyada axborot kommunikatsion texnologiyalari	120
1.09	JTS1202	Jismoniy tarbiya va sport	60
1.10	IA1206	Ijtimoiy antropologiya	180
1.11	Fal1304	Falsafa	120
1.12	US1316	Umumiy sotsiologiya 1	480
1.13	STTE1308	Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish metodlari 2	240
1.14	DS1308	Din sotsiologiyasi	240
1.15	O'TSQ1402	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	60
1.16	SXMS1408	Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi	240
1.17	UP1404	Umumiy psixologiya	120
1.18	IP1506	Ijtimoiy psixologiya	180
1.19	DXSP1506	Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va psixologiyasi	180
1.20	US1510	Umumiy sotsiologiya 2	300
1.21	JFS1608	Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi	240
1.22	MBS1604	Mehnat va bandlik sotsiologiyasi	120
1.23	YS1706	Yoshlar sotsiologiyasi	180
1.24	Tes1708	Testologiya	240
1.25	HS1704	Huquqiy sotsiologiya	120
1.26	OGS1704	Oila va gender sotsiologiyasi	120
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1200</b>
		<b>Jami</b>	<b>6180</b>
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>570</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>450</b>
		<b>Jami</b>	<b>1020</b>
		<b>Xammasi</b>	<b>7200</b>

**Bakalavriyaturada ta'lim jarayoning tarkibi**

№	Ta'lim jarayoni	O'zbekiston Respublikasi (bakalavriyat)	Rossiya (bakalavriyat)	AQSH (bakalavriyat)
1.	Nazariy ta'lim	Kafedradagi o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlar talabalarga beriladi	Asosan talabalar yo'nalishlari bo'yicha professor o'qituvchilarning maruzalariga kiradi	Asosiy qismi fakultet ma'ruza kurslari ko'rinishida o'tkaziladi
2.	Amaliy ta'lim	Ta'lim muassasasida	Universitet kafedralari qoshidagi maxsus laboratoriyalari	Ta'lim muassasasida va Universitet kafedralari qoshidagi maxsus laboratoriyalarda Universitet kafedralari qoshidagi maxsus laboratoriyalarda
3.	Ilmiy -tadqiqot ishlari	Bakalavriyatmada ta'lim oluvchilar tanlagan mavzusi bo'yicha bitiruv malakaviy ishini asosan kafedra sharoitida amalga oshiradi. Kafedra yoki boshqa kafedra professor-o'qituvchilari (maslahatchi) ilmiy rahbar etib tayinlanadi. Ilmiy izlanish davomida ilmiy maqolalar, tezislar yozish, respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etish va ma'ruza qilish bilan shug'ullanadilar.	Ilmiy ish bo'yicha kafedra yoki o'zining mavzusi bo'yicha boshqa mutaxassis bilan turli institutlarda oshiriladi. Bakalavriyatmada o'qish jarayonida ilmiy rahbar tanlanadi.	Kafedra professor-o'qituvchilari rahbarligida, ilmiy dasturlar doirasida tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. Ilmiy ish davomida referatlar taqdim qilishi, konferensiyalarda ishtirok qilishi va ilmiy ish mavzusi bo'yicha jurnalga maqola yozishi mumkin
4.	Mustaqil ta'lim	Talabalar nazariy malumotlar, amaliy ko'nikmalar va ilmiy ishlari bo'yicha asosiy baza va boshqa ta'lim muassasalarida yaratilgan sharoitlardan (tarqatma materiallar, kutubxona, internet tarmog'i va boshqa) foydalanilgan holda o'z bilimlarini oshirishlari mumkin.	Talabalar turli mavzularda mustaqil izlanadilar va semestrlar yakunida xulosalarini professor-o'qituvchilarga taqdim etadilar (maqola, taqdimoti)	Talabalar mustaqil talimda jurnallarga kamida 2-3 maqola yozadilar. Mostashirilgan barcha shart-sharoitlardan keng foydalanishlari mumkin.
5.	Ta'lim jarayonida baholash	Talabalarning nazariy va amaliy ko'nikmalar, ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha bilimlarini baholash bakalavriyat reyting tizimi asosida joriy, oraliq, yakuniy baxo ko'rinishida va har yarim yillik va yillik attestatsiya ko'rinishida amalga oshiriladi. Yakuniy davlat imtixon savollari og'zaki, yozma, test ko'rinishida va amaliy ko'nikmalarni namoyish etish ko'rinishida talab qilinadi.	Semestrlar davomida asosiy fanlardan belgilangan amaliy, seminar mashg'ulotlari orqali kredit yig'ib boradilar.	Talabalarning joriy bilimi, kompetensiyasi va o'zlashtirishi oraliq test savollari oraliq, bilimlarni davriy og'zaki ko'rinishda tekshirish, bo'yicha har yarim yilda yozma test ko'rinishida amalga oshiriladi.

**Bakalavriyat ta'lim jarayoning mazmuni va davomiyligi**

№	O'zbekiston Milliy universiteti (O'zbekiston)	Seul Milliy universiteti (J.Koreya)	Myunxen universiteti (Germaniya)	Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya)	Nyu York universiteti (AQSH)	Bristol universiteti (Buyuk Britaniya)	Oksford universiteti (Buyuk Britaniya)	Moskva Davlat universiteti (Rossiya)
	Bakalavr sotsiologiya	Bakalavr sotsiologiya	Bakalavr sotsiologiya	Bakalavr sotsiologiya	Bakalavr sotsiologiya	Bakalavr sotsiologiya	Bakalavr sotsiologiya	Bakalavr sotsiologiya
	<a href="http://www.nuu.uz">www.nuu.uz</a>	<a href="http://www.useoul.edu">www.useoul.edu</a>	<a href="http://www.uni-muenchen.de">www.uni-muenchen.de</a>	<a href="http://www.cam.ac.uk">www.cam.ac.uk</a>	<a href="http://www.nyu.edu">www.nyu.edu</a>	<a href="http://www.bristol.ac.uk">www.bristol.ac.uk</a>	<a href="http://www.ox.ac.uk">www.ox.ac.uk</a>	<a href="https://www.msu.ru">https://www.msu.ru</a>
1.	Umumiy sotsiologiya	-	-	-	-	-	What does philosophy means	Введение в социологию
2.	Sotsiologiya tarixi	1.History of Koren Sociology 2.History of Industrial sociology	Introduction to sociology Sociological Theory	Introduction to sociology	Sociological Theory	Introduction to sociolog Sociological Theory	Sociological Theory	История Социология
3.	Oila va gender sotsiologiyasi	Sociology of family	-	Sociology of family	Sociology of family	-	-	Социология семьи ибрачных отношений
4.	Shaxs va deviant xulq-atvor sotsiologiyasi							
5.	Ijtimoiy statistika	Statistics and statistical analyses	Statistics and statistical analyses	-	-	Statistics and statistical analyses	Statistics and statistical analyses	Социальная статистика
6.	Tashkilotlar sotsiologiyasi	Sociology of management	Die Ethik der deutschen klassischen Philosophic	1.Early modern moral philosophy 2. Metaethics 3.Theories of good	1.Ethics and the Environment 2.Classic aesthetics			Социология организации
7.	Sotsiologik tadqiqotlarning metodologiyasi	Sociological Research Methods	Empirical sociology	Empirical sociology	Sociological Research Methods	Sociological Research Methods	Sociological Research Methods	Методология, методы и техника социологических исследований

8.	Mehnat va bandlik sotsiologiyasi	Sociology of labor	Sociology of labor	Industrial of sociology	Sociology of labor market	Труд и занятость социология
9.	Madaniy sotsiologiyasi	Sociology of labor	Sociology of labor	Industrial of sociology	Sociology of labor market	Социальная антропология
10.	Sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash va taxlil qilish	Social anthropology	Cultural anthropology	Cultural anthropology	Social anthropology	Социальная антропология
11.	Xuquq sotsiologiyasi	Social anthropology	Cultural anthropology	SPSS Statistics Programs	SPSS Statistics Programs	Обработка и анализ социологических данных
12.	Ijtimoiy antropologiya	Sociology of law and sociological jurisprudence	Sociology of law	Sociology of law	Sociological jurisprudence	Юридическая социология
13.	Siyosiy va xalqaro Munosabatlar sotsiologiyasi	Philosophy of Language	Rhetoric	Rhetoric	Oratory	-
14.	Xarbiy sotsiologiya	Political sociology	Political sociology	Political sociology	Political sociology	Политическая социология
15.	Tibbiyot sotsiologiyasi	-	-	-	-	Военная социология
16.	Din sotsiologiyasi	Philosophy of law	Political philosophy	Political philosophy	-	Социология медицины
	<b>Din sotsiologiyasi</b>	<b>subjects of choice</b>	<b>subjects of choice</b>	<b>subjects of choice</b>	<b>subjects of choice</b>	<b>Предметы по выбору</b>

**Izoh:** Sotsiologiya bakalavr ta'lim yo'nalishi birlamchi manbalarga suyanganda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, hozirgi kunda juda dolzarb yo'nalish bo'lib, doimiy izlanishni, tahlil qilish va mukammallashtirishni talab qilmoqda. Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan shuni aytish mumkin, mamlakatimizda yaratilayotgan "Sotsiologiya" ta'lim yo'nalishi malaka talablari jahon andozalariga mos ravishda bo'lib, boshqa mamlakatlarning ta'lim dasturlariga o'xshash tomonlari hamda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.